

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbonov Xurshid Raupovich</i> O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOY MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI.....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi</i> O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2024 yy).....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	65-69
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLIM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i> RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Лу Адук</i> К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i> FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i> “KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI”	316-322
<i>Xatamov To'liqin Tojiddinovich</i> KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i> VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'rinova Dilshoda Adhamovna</i> OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i> RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i> ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i> ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i> DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li</i> JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абророва Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOGBARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI.....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOYIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI VAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE**Received:** 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***METHODOLOGY OF CONDUCTING THEORETICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE “THEORY AND METHODOLOGY OF PHYSICAL CULTURE”****Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich**

Termez State Pedagogical Institute

Department of Physical Education, (PhD)

Abstract. In modern higher education, improving the methodology of teaching theoretical disciplines, including “Theory and Methodology of Physical Culture” is of particular importance. This study is dedicated to examining the effectiveness of various methods for conducting theoretical classes in the discipline “Theory and Methodology of Physical Culture” in higher educational institutions. The aim of the study is to assess students' level of comprehension of lecture material when using both traditional and interactive teaching methods.

A total of 117 students participated in the study, divided into two groups: one was taught using the traditional method, while the other received instruction through interactive methods (group discussions, multimedia technologies, case methods). The final test results showed that the average score of students taught using interactive methods was 19.6% higher than that of students who attended traditional lectures. Additionally, it was observed that interactive approaches significantly increased student engagement and participation in lessons. The findings confirm the necessity of revising the methodology for teaching theoretical lessons in physical education. The use of interactive learning forms enhances students' academic performance, interest in lessons, and professional training levels

Keywords: physical education, theoretical lessons, interactive methods, traditional lectures, higher education, students, comprehension, engagement, testing, pedagogy, multimedia technologies, case methods, active learning, teaching methodology, motivation.

“JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI” FANIDAN NAZARIY MASHG’ULOTLARNI O’TKAZISH METODIKASI**Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich**

Termiz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrası, (PhD)

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida nazariy fanlarni, jumladan, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot oliy ta’lim muassasasida “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fanidan nazariy mashg’ulotlarni o’tkazishning turli usullarining samaradorligini o’rganishga bag’ishlangan. Ishning maqsadi — an’anaviy va Interfaol o’qitish usullari qo’llanilganda talabalar tomonidan ma’ruza materialining o’zlashtirish darajasini baholashdir.

Tadqiqotda 117 nafar talaba ishtirok etdi va ular ikki guruhga bo’lindi: biri an’anaviy usulda, ikkinchisi esa Interfaol metodlar (guruhli muhokamalar, multimedia texnologiyalari, keys-metodlar) yordamida ta’lim oldi. Yakuniy test natijalariga ko’ra, Interfaol usullar asosida tahsil olgan talabalarining o’rtacha bali an’anaviy ma’ruzalar tinglagan talabalar natijalaridan 19,6% yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Interfaol yondashuvlar qo’llanganda talabalar faolligi va darsga jalb qilinishi yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Olingan natijalar jismoniy tarbiya bo’yicha nazariy mashg’ulotlarni o’qitish metodikasini qayta ko’rib chiqish zaruratini isbotlaydi. Interfaol ta’lim shakllaridan foydalanish talabalar akademik natijalari, darsga qiziqish darajasi va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: jismoniy tarbiya, nazariy mashgʻulotlar, Interfaol metodlar, anʻanaviy maʼruzalar, oliy taʼlim, talabalar, oʻzlashtirish, jalb qilinish, test sinovi, pedagogika, multimedia texnologiyalari, keys-metodlar, faol taʼlim, oʻqitish metodikasi, motivatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N69>

Kirish. Oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya taʼlim jarayonining muhim tarkibiy qismi boʻlib, talabalarni har tomonlama rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Biroq, zamonaviy taʼlim muhitida nafaqat amaliy tayyorgarlik, balki talabalar nazariy bilimlarini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fanidan nazariy mashgʻulotlar oʻquvchilarga inson organizmining jismoniy yuklamalar ostida ishlash qonuniyatlari, sport mashgʻulotlarining asoslari, pedagogik taʼsir usullari va sogʻlom turmush tarzi tamoyillarini chuqur oʻzlashtirishga yordam beradi [2; 573-b., 4; 382-b.].

Anʻanaviy tarzda oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya asosan amaliy tayyorgarlikka yoʻnaltirilgan boʻlib, bu esa nazariy bilimlarning yetarlicha oʻzlashtirilmasligiga sabab boʻladi. Natijada, talabalar jismoniy tarbiya roli va ahamiyati haqida yuzaki tasavvurga ega boʻlishi mumkin, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy kompetensiyalariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar jismoniy tarbiya boʻyicha nazariy kurslarni oʻqitish metodikasini modernizatsiya qilish, Interfaol taʼlim texnologiyalarini, multimedia vositalarini va faol oʻqitish shakllarini joriy etish zarurligini taʼkidlamogʻda [1; 135-b., 3; 95-b.].

Nazariy mashgʻulotlarni tashkil etishning turli yondashuvlari mavjud: klassik maʼruzalar, seminar mashgʻulotlari, loyihaviy ishlar, masofaviy kurslar, multimedia maʼruzalar, guruhli munozaralar va muammoli taʼlim. Biroq, bu usullarning samaradorligi hali ham ilmiy izlanishlar obyekti boʻlib qolmoqda. Baʼzi tadqiqotlar anʻanaviy maʼruzalar talabalar faoliyatining passivligi va kam ishtiroki bilan bogʻliq kamchiliklarga ega ekanligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, Interfaol texnologiyalardan foydalanish motivatsiyani oshirish va oʻquv materialini yaxshiroq oʻzlashtirishga xizmat qiladi [5; 43-b., 7; 234-b.].

Adabiyotlar tahlili. Oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, nazariy materialni muvaffaqiyatli oʻzlashtirish nafaqat talabalar jismoniy tayyorgarligining yaxshilanishiga, balki ularning jismoniy faollikka ongli munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi [3; 96-b., 7; 234-b.]. Nazariy mashgʻulotlar talabalarga harakatlarning fiziologik va biomexanik asoslari, sport metodikasi hamda mashgʻulotlarning psixologik jihatlarini chuqur tushunish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotchilarning fikriga koʻra, jismoniy tarbiyani oʻqitishning zamonaviy metodlari anʻanaviy maʼruzalar bilan birga Interfaol taʼlim shakllarini ham oʻz ichiga olishi lozim. Bunga multimedia texnologiyalari va masofaviy kurslar kiradi. Ular nazariy bilimlarni amaliy mashgʻulotlar bilan integratsiya qilish talabalar motivatsiyasini oshirishga va materialni yaxshiroq oʻzlashtirishga yordam berishini taʼkidlaydi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, jismoniy tarbiya nazariyasini oʻqitishning anʻanaviy usullari (maʼruzalar, seminarlar) talabalar individual xususiyatlari va zamonaviy taʼlim texnologiyalarini inobatga olgan holda modernizatsiya qilinishi kerak. Muammoli taʼlim, oʻyin texnologiyalari va keys-metodlar kabi Interfaol yondashuvlar talabalarni oʻquv jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy taʼlim muassasalarida “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fani boʻyicha nazariy mavzularni talabalar tomonidan oʻzlashtirish jarayonini

o'rganish va jismoniy tarbiyaning nazariy jihatlarini o'qitishning eng samarali metodlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

2. Talabalarning ma'ruza materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash.

4. Turli o'qitish metodikalarining talabalar motivatsiyasi va ularning akademik natijalariga ta'sirini o'rganish.

5. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya doirasida nazariy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiali va metodlari. Tadqiqotda institutning Jismoniy madaniyat fakultetida tahsil olayotgan va "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fanini o'rganayotgan I va II kursning 117 nafar talabalar ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

- A guruhi (An'anaviy ta'lim, N = 60) - mashg'ulotlar an'anaviy ma'ruzalar va seminarlar shaklida olib borildi.

- B guruhi (Interfaol ta'lim, N = 57) - o'qitish jarayonida zamonaviy usullar: multimedia ma'ruzalar, guruhli muhokamalar, keys-metodlar va loyihaviy faoliyat qo'llanildi.

Materialni o'zlashtirish darajasi va o'qitish metodikasining samaradorligini baholash uchun quyidagi materiallar ishlatildi:

1. Ma'ruza materiallari va o'quv qo'llanmalar - "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fani bo'yicha.

2. Talabalar o'rtasida so'rovnomalar - ta'lim jarayonidan qoniqish va motivatsiya darajasini aniqlash uchun.

3. Test topshiriqlari va nazorat ishlari - talabalar bilim darajasini obyektiv baholash maqsadida.

4. Pedagogik kuzatuv usullari - talabalarni o'quv jarayoniga jalb etish darajasini tahlil qilish.

5. Dasturiy ta'minot va multimedia resurslari - B guruhi uchun video-ma'ruzalar, onlayn kurslar va test platformalari.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili:

- Jismoniy tarbiya nazariy fanlarini o'qitish metodikasiga oid ilmiy nashrlarni o'rganish.
- An'anaviy va zamonaviy ta'lim usullarini taqqoslash.

2. Talabalar so'rovnomasi:

- O'quv jarayoni bo'yicha qoniqish darajasini baholovchi so'rovnomalar ishlab chiqish.
- Talabalarning o'qitish uslublariga bo'lgan afzalliklarini aniqlash.
- O'quv jarayoniga jalb etilish darajasini baholash.

3. Pedagogik kuzatuv va tahlil:

- Ma'ruzalarda talabalar faolligini baholash.
- Interfaol ta'lim shakllarida ishtirok etish darajasini o'rganish.
- Talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish.

4. Akademik natijalarni statistik tahlil qilish:

- Semestr yakunida A va B guruhlari uchun test sinovlarini o'tkazish.

- Talabalar bilim darajasini taqqoslash maqsadida o'rtacha ballarni solishtirish.
- Farqlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun matematik statistika usullaridan foydalanish.

Tadqiqot natijalari. 1. Talabalarining materialni o'zlashtirish darajasini baholash.

Talabalarining bilimlarini obyektiv baholash uchun har ikkala guruh (A — An'anaviy ta'lim, B - Interfaol ta'lim) yakuniy testdan o'tkazildi. Test 30 ta savoldan iborat bo'lib, o'rtacha natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Guruh	O'rtacha ball (30 dan)	To'g'ri javoblarning o'rtacha foizi
A guruhi (An'anaviy ta'lim)	18,2	60,7%
B guruhi (Interfaol usullar)	24,1	80,3%

Ko'rinib turibdiki, Interfaol usullar asosida ta'lim olgan B guruhi talabalari materialni an'anaviy usulda o'qigan A guruhiga nisbatan yaxshiroq o'zlashtirgan.

2. O'qitish metodikasining talabalar jalb etilishiga ta'siri.

Talabalarining o'quv jarayoniga jalb etilganlik darajasini baholash uchun so'rovnoma o'tkazildi. Talabalarga quyidagi savol berildi:

“Jismoniy tarbiyaning nazariy jihatlarini o'rganish siz uchun qanchalik qiziqarli?”.

Javoblar 1 dan 5 gacha bo'lgan shkalada baholandi (1 — umuman qiziq emas, 5 - juda qiziq). O'rtacha natijalar quyidagicha bo'ldi:

- A guruhi (An'anaviy ta'lim) — 2,9;

- B guruhi (Interfaol usullar) - 4,3.

Shuningdek, talabalar tomonidan dars davomida faol qatnashish ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi (2-jadval):

2-jadval

Guruh	Faol talabalar soni (60 dan)	Faol talabalar ulushi
A guruhi	18	30%
B guruhi	41	68%

Interfaol ta'lim usullari qo'llanilgan B guruhida talabalar faolroq ishtirok etgan va o'quv jarayoniga qiziqishi ancha yuqori bo'lgan.

3. Semestr davomida akademik natijalarning dinamikasi.

Talabalarining bilim darajasidagi o'zgarishlarni baholash uchun semestrning turli bosqichlarida test natijalari tahlil qilindi (3-jadval):

3-jadval

Test bosqichi	A guruhi (An'anaviy ta'lim)	B guruhi (Interfaol usullar)
Semestr boshida	9,5 (32%)	10,1 (34%)
Semestr o'rtasida	14,8 (49%)	19,3 (64%)
Semestr oxirida	18,2 (60%)	24,1 (80%)

Ko'rinib turibdiki, B guruhi talabalari bilim darajasini tezroq oshirishga erishgan va yakuniy natijalari ham yuqori bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Test natijalari taqqoslanishi. B guruhi talabalarining yakuniy test natijalari A guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ldi (24,1 ballga nisbatan 18,2). Bu Interfaol metodlarning materialni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishini ko'rsatadi.

2. Talabalarning o'quv jarayoniga jalb etilish darajasi. B guruhi talabalar o'quv jarayoniga ancha faol jalb etilgan: ular predmetga bo'lgan qiziqishini yuqori baholagan (4,3 ball va 2,9 ball) va dars jarayonida ko'proq ishtirok etgan (68% va 30%).

3. Akademik natijalar dinamikasi. Semestr davomida B guruhi talabalar bilimlarini ancha tez rivojlantirgan. Ularning test natijalari doimiy ravishda oshib borib, semestr oxirida A guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi (80% va 60%).

Muhokama. Olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning nazariy asoslarini o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Interfaol texnologiyalar va faol ta'lim metodlarini qo'llash talabalar motivatsiyasini oshiradi hamda materialni o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi.

An'anaviy ma'ruzalar nazariy bilimlarning izchilligi va tizimlilikini ta'minlasa-da, talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishi sababli, ularning samaradorligi pasayishi mumkin. Aksincha, Interfaol usullar talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos ta'lim shakllarini taklif etish muhim. Masalan, masofaviy kurslar, video-ma'ruzalar va onlayn-simulyatsiyalar ayniqsa raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan bugungi kunda dolzarbdir.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni tasdiqlaydi: nazariy mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish talabalar tomonidan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Quyida turli omillarning natijalarga ta'siri muhokama qilinadi, boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslanadi hamda asosiy tavsifatlar beriladi.

O'qitish metodikasining materialni o'zlashtirishga ta'siri. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Interfaol usullar bilan o'qigan talabalar yuqori bilim darajasini namoyon etdilar. B guruhidagi o'quvchilarning to'g'ri javoblari o'rtacha 80,3% ni tashkil etdi, bu esa A guruhi (60,7%) bilan solishtirganda 19,6% yuqoridir.

Interfaol metodlarning samaradorligi sabablari:

- Guruh muhokamaları va jamoaviy topshiriqlar orqali talabalar ishtirokining oshishi.
- Video-ma'ruzalar va Interfaol testlardan foydalanish materialni yaxshi tushunishga yordam beradi.
- O'quv jarayonining moslashuvchanligi, har bir talabaga individual yondashish imkoniyati.

Bu natijalar Abdullayev Ya. M. tadqiqotlari bilan hamohang bo'lib, ular ham interfaol o'qitish usullari jismoniy tarbiya nazariyasini o'zlashtirish samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

O'qitish metodikasining talabalar motivatsiyasiga ta'siri. Talabalarning motivatsiyasini baholash uchun o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdi: B guruhi talabalar o'quv faniga bo'lgan qiziqishni 5 ballik tizimda o'rtacha 4,3 ball bilan baholagan, A guruhida esa bu ko'rsatkich 2,9 ballni tashkil etgan. Bundan tashqari, B guruhida talabalarining 68% faol muhokamalarda qatnashgan bo'lsa, A guruhida bu ko'rsatkich atigi 30% ni tashkil etdi.

Motivatsiyani oshirish omillari:

- Guruhiy muhokamalar orqali talabalar o'zaro hamkorlik qiladi va qiziqishi oshadi.
- O'yin va loyiha metodlaridan foydalanish darslarni yanada jonli va Interfaol qiladi.
- Nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini tushunish orqali qiziqish ortadi.

O'quv yutuqlarining dinamikasi. O'quv jarayonining boshida ikkala guruh orasidagi farq minimal edi: A guruhi 9,5 ball, B guruhi esa 10,1 ball ko'rsatkichga ega edi. Biroq, semestr oxirida B guruhi talabalarining o'rtacha bahosi 24,1 ballga yetdi, A guruhida esa bu ko'rsatkich atigi 18,2 ballni tashkil etdi.

Bu quyidagilarni anglatadi:

- Interfaol usullar yangi bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.
- An'anaviy metodlar bilan ta'lim olgan guruhda bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni sekinroq kechdi.
- Faol ishtirok etgan talabalar materialni yaxshiroq eslab qolishadi.
- Sokolenko L. S. tadqiqotlari ham quyidagilarni tasdiqlaydi: talabalar o'quv jarayoniga faol jalb etilganida, ularning bilim darajasi ancha yuqori bo'ladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasasida "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fanidan nazariy mashg'ulotlarni o'tkazishda ikki yondashuvning samaradorligi qiyosiy baholandi:

- An'anaviy usul (A guruhi) - talabalarining minimal ishtiroki bilan klassik ma'ruza shaklida o'tkazildi.
- Interfaol usul (B guruhi) - multimedia texnologiyalari, guruhiy muhokamalar va faol o'qitish metodlarini o'z ichiga oldi.

Olingan natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

- Interfaol metodlar materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Yakuniy test natijalariga ko'ra, B guruhining o'rtacha natijasi 24,1 ball (80,3%) bo'ldi, bu an'anaviy ma'ruzalar asosida o'qigan A guruhidan 19,6% yuqoridir (18,2 ball, 60,7%).
- Talabalarining motivatsiyasi faol usullarda yuqoriroq bo'ladi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, B guruhidagi talabalar fan bo'yicha qiziqish darajasini 5 ballik tizimda o'rtacha 4,3 ballga baholagan, A guruhida esa bu ko'rsatkich 2,9 ballni tashkil etdi.
- Interfaol usullar talabalarining faolligini oshiradi. B guruhidagi talabalarining 68% muntazam muhokamalarda ishtirok etgan bo'lsa, A guruhida bu ko'rsatkich atigi 30% ni tashkil etdi.
- Interfaol yondashuvda o'quv yutuqlari tezroq o'sadi. Semestr boshida guruhlar orasidagi farq minimal bo'lgan bo'lsa-da, semestr oxiriga kelib, B guruhi sezilarli yuqori natijalarga erishdi.

Ushbu natijalar an'anaviy ma'ruzalar o'rniga, talabalarining o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydigan zamonaviy metodlar samaraliroq ekanligini tasdiqlaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu tadqiqot jismoniy tarbiya nazariy mashg'ulotlarini takomillashtirish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Turdimurodov, D. (2024). Talabalarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish xususiyatlari. *Журнал «Вестник физической культуры и спорта» Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*, 1(2), 135-140 b.

2. Turdimurodov, D. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining pedagogik shartlari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 4(S/9), 570-575.
3. Turdimurodov, D. Y. (2025). Organization of physical education for students of higher education institutions. *American Journal of Modern World Sciences*, 2(3), 92-99.
4. Абдуллаев, Я. М. (2012). Развитие физического воспитания подрастающего поколения в непрерывном образовании. *Молодой ученый*, (11), 381-383.
5. Шавелев Х. Э., Соколенко Л. С. Инновационные модели подготовки соискателей высшего образования в сфере физического воспитания и спорта. Академические видения. - 2023. № 17. 43-47 б.
6. Соколенко Л. С. Интеграция новейших методик преподавания физического воспитания в высших учебных заведениях с использованием технологий для дистанционного обучения. Академические видения. - 2023. № 20. 77-80 б.
7. Лоза Т. О. Обоснование необходимости внедрения инновационных технологий в процесс физического воспитания студенческой молодежи. Педагогические науки: физическое воспитание и спорт. - 2021. № 2. 232-236 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).